



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeveva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdukirimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исматиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	



O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Qosimova Fazilat Sherzod qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Buxgalteriya hisobi fakulteti talabasi
ORCID: 0009-0002-4156-3742

Ilmiy rahbar:

Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrası professori, Iqtisodiyot fanlari doktori.

Annotatsiya: Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi milliy standartlaridan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun dolzarbligi, moliyaviy shaffoflikni ta'minlashdagi ahamiyati hamda xalqaro moliya bozorlariga integratsiya jarayonining tezlashishi yoritilgan. Shuningdek, investorlar ishonchini mustahkamlash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. BHMSni tahlil qilish asosida normativ-huquqiy, kadrlar va texnologik muammolar aniqlangan. O'tish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari yoritilgan. Keltirilgan xulosa va takliflar buxgalteriya hisobini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, kredit risklari, hisobdorlik muammolari, iqtisodiyot modernizatsiyasi, sof foyda, aktiv, transformatsiya, lizing operatsiyalari.

Abstract: This article examines the relevance of transitioning from national accounting standards to International Financial Reporting Standards (IFRS) for the country's economy, its role in ensuring financial transparency, and its impact on accelerating integration into global financial markets. Particular attention is given to strengthening investor confidence and expanding opportunities for attracting foreign investment. Based on the analysis of national accounting standards, regulatory, human resource, and technological challenges are identified. The study also discusses potential difficulties during the transition process and prospects for overcoming them. The conclusions and recommendations provided have practical significance for improving accounting practices.

Key words: financial reporting, credit risks, accountability issues, economic modernization, net profit, assets, transformation, leasing operations.

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальность перехода от национальных стандартов бухгалтерского учета к международным стандартам финансовой отчетности для экономики страны, его значение в обеспечении финансовой прозрачности и ускорении интеграции в международные финансовые рынки. Особое внимание уделено укреплению доверия инвесторов и расширению возможностей привлечения иностранных инвестиций. На основе анализа национальных стандартов бухгалтерского учета выявлены нормативно-правовые, кадровые и технологические проблемы. Также рассмотрены возможные трудности переходного периода и перспективы их преодоления. Представленные выводы и рекомендации имеют практическое значение для совершенствования бухгалтерского учета.

Ключевые слова: финансовая отчетность, кредитные риски, проблемы подотчетности, модернизация экономики, чистая прибыль, актив, трансформация, лизинговые операции.



KIRISH

Global bank va moliya bozorlari tobora murakkablashib borayotgan bir paytda, moliyaviy hisobotlarning xalqaro taqqoslanishi va ishonchiligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) moliya tizimining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. MHXS buxgalteriya hisobini umumiy standartlar asosida yuritish orqali banklar va boshqa moliyaviy faoliyat bilan shug'ullanadigan korxonalar o'rtasidagi axborot uzatish jarayonini soddalashtiradi hamda ularning faoliyati shaffofligini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda ham moliya va buxgalteriya hisobini rivojlantirish maqsadida mustaqilligimizdan buyon bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda hamda iqtisodiyotni yanada yaxshilashga qaratilgan qaror va qonunlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 25-fevralda "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror, shuningdek, 2025-yil 15-sentabrda "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror tasdiqlandi. Hisob-kitob ishlarining xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Shu bilan birga, mamlakatimizda hisob sohasida avtomatlashtirish darajasining pastligi, shaffoflik yetishmasligi va kadrlar tayyorlashdagi kamchiliklar mazkur sohada ko'plab takliflar ishlab chiqish zarurligini namoyon qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini tahlil qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish sohasida ko'plab olimlar hamda tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Mazkur mavzu xalqaro miqyosda moliyaviy hisobotlarni yagona standartlar asosida shakllantirish, iqtisodiy jarayonlarning ochiqqligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Quyida MHXS yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borgan ayrim yetakchi olimlar hamda ularning tadqiqot ishlariga qisqacha tavsif beriladi.

Lancaster University Management School (Buyuk Britaniya) professori Argyro Panaretou Yevropa Buxgalteriya Assotsiatsiyasining moliyaviy hisobot standartlari qo'mitasi a'zosi hisoblanadi. U asosan moliyaviy instrumentlar hisobi, adolatli qiymat asosida baholash, kredit risklari va ularning MHXS bo'yicha ochib berilishi, MHXS standartlarining moliyaviy hisobot sifatiga ta'siri kabi masalalarni o'rganadi. Uning faoliyati davomida yozgan ilmiy ishlari va maqolalari quyidagilar: "Fair Value Accounting: Current Practice and Perspectives" (2020), "Classification and Measurement under IFRS 9" (2024) va boshqalar.

David Alexander va Christopher Nobes xalqaro buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobot standartlari sohasida nufuzli olimlar sifatida e'tirof etiladi. Ularning "International Financial Reporting and Analysis" nomli asari MHXSni batafsil va tizimli o'rganish uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi. Mazkur kitobda MHXSning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, uning turli mamlakatlarda amaliy qo'llanilishi, shuningdek, buxgalteriya hisobotlari sifatiga ko'rsatadigan ta'sir jihatlari chuqur tahlil etilgan. Ayniqsa, xalqaro moliyaviy hisobotlarning korporativ boshqaruv tizimi hamda investorlar bilan o'zaro aloqalardagi ahamiyati keng qamrovli ilmiy izlanishlar asosida yoritib berilgan.

Professor Ahmed Rashad Abdel-Khalik University of Illinois Urbana-Champaign xalqaro buxgalteriya hisobi professori hisoblanadi. U risklarni hisobga olish, murakkab moliyaviy shartnomalar, buxgalteriya tadqiqot metodologiyasi kabi ilmiy yo'nalishlarda faoliyat yuritadi. Uning bank va buxgalteriya sohasiga oid bir qancha kitoblari mavjud. Jumladan: "Accounting for Risk, Hedging and Complex Contracts" (2013), "Big Banks, Swap Mania and the Fallout" (2019). Uning asarlarida asosan yirik banklar va davlat tashkilotlarida swap shartnomalari, moliyaviy inqirozlar sabablari hamda moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik muammolari keng tarzda yoritib berilgan.

Shyam Sunder MHXS va umuman buxgalteriya standartlari haqidagi izlanishlari bilan mashhur. Uning "Theory of Accounting and Control" asarida xalqaro buxgalteriya standartlari, xususan, MHXSning hisob standartlari orqali iqtisodiyotga kiritadigan shaffoflik va raqobatbardoshlikka oid tahlillar mavjud. Sunder ushbu standartlarning qabul qilinishi va qo'llanishining ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy oqibatlarini o'rganadi, bu esa MHXSni joriy etishda yuzaga keladigan turli to'siqlarni yoritadi.

Ray Ball o'z ilmiy izlanishlarida Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining global kapital bozorlari hamda korporativ moliya hisobiga ko'rsatadigan ta'sirini tadqiq etadi. Uning tadqiqot natijalari MHXSning joriy etilishi korxonalarda moliyaviy shaffoflik darajasining oshishiga hamda investorlar uchun taqdim etiladigan axborotning ishonchiligi va sifatining yaxshilanishiga xizmat qilganini ko'rsatadi. Shuningdek, u buxgalteriya hisobotlari sifatini va ochiqqligini oshirish orqali MHXSning xalqaro kapital harakati hamda iqtisodiy taraqqiyot jarayonlariga qo'shayotgan hissasini atroflicha tahlil qiladi.



Khaled Hussainey buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar bilan uzviy bog'liq jihatlarini ilmiy jihatdan o'rganadi. Uning ilmiy ishlari MHXSning korporativ moliya sohasiga ko'rsatadigan ta'sirini, shuningdek, mazkur standartlarning xalqaro investitsiya qarorlarini shakllantirishdagi rolini yoritishga qaratilgan. Hussainey, ayniqsa, moliyaviy axborotni oshkor etish mexanizmlari hamda ushbu jarayonda MHXSning tutgan o'ri bo'yicha chuqur va tizimli tahlillar olib borgan.

Yuqorida qayd etilgan olim va tadqiqotchilar MHXSning global hamda milliy moliyaviy tizimlar rivojiga qo'shayotgan hissasi, ushbu standartlarning amaliyotda tatbiq etilish mexanizmlari va ularning natijalari yuzasidan turli ilmiy yondashuvlarni ilgari suradilar. Mazkur tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida MHXSni joriy etish jarayonida muhim metodologik asos va amaliy tajriba manbai sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'zbekistonlik olimlar xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini milliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish, ularni qo'llash samaradorligini oshirish hamda bank tizimida yanada mukammal tatbiq etishga qaratilgan chuqurlashtirilgan ilmiy izlanishlarni olib bormoqdalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O'zbekistonda buxgalteriya hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish jarayonining muammolari va istiqbollarini o'rganishda ilmiy tadqiqotning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy yondashuv, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv usullari qo'llanildi.

Maqolada MHXSni joriy etish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar, milliy buxgalteriya hisobi standartlari hamda xalqaro tajriba materiallari o'rganildi. Shuningdek, buxgalteriya hisobini MHXSga moslashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

Tadqiqotning tahliliy qismida O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini MHXS asosida yuritish bo'yicha so'nggi yillardagi ko'rsatkichlar, rasmiy statistik ma'lumotlar va moliyaviy hisobotlar asosida qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda tijorat banklarining xalqaro moliyaviy bozorlarga chiqishi, shaffoflikni ta'minlashi va xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida MHXSni joriy etish dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 15-sentabrdagi yuqorida keltirib o'tilgan PQ-282-son qarori va shunga o'xshash boshqa qarorlari moliyaviy hisob va buxgalteriya sohasida o'z samarasini berib kelmoqda.

O'zbekistonda tijorat banklarining xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvi hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhitni shakllantirish maqsadida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarga oid statistik ma'lumotlar MHXSning amaliyotda qo'llanilishi tijorat banklari faoliyatida moliyaviy natijadorlik va samaradorlik darajasining sezilarli oshishiga xizmat qilganini ko'rsatadi.

Tijorat banklarining aktivlari o'sishi MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishi natijasida sezilarli darajada oshgan. Xalqaro moliyaviy standartlarga mos ravishda tuzilgan hisobotlar xorijiy sarmoyadorlar uchun ishonchli va qulay bo'lganligi sababli ushbu o'sish qayd etiladi.

1-jadval. Tijorat banklari faoliyatining aktivlari to'g'risida yillar kesimida ma'lumot (2023-2025)¹

T/r	Bank nomi	2023-yil	2024-yil	2025-yil
		Aktivlar (mlrd so'mda)	Aktivlar (mlrd so'mda)	Aktivlar (mlrd so'mda)
	Jami	651 608	767 937	922 939
	Davlat ulushi mavjud banklar	441 777	503 187	586 937
1	O'zmilliybank	127 503	135 090	144 745
2	Agrobank	66 700	79 404	103 597
3	O'zsanoatqurilishbank	74 634	87 597	102 439
4	Asaka bank	58 014	58 093	61 845
5	Xalq banki	36 603	46 491	52 119

1 Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki asosiy sayti Statistika bo'limining alohida bank tizimi faoliyati ko'rsatkichlari bo'limida joylashtirilgan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi.



6	Biznesni rivojlantirish banki	27 063	32 133	38 168
7	Aloqa bank	16 045	23 251	31 528
8	Mikrokreditbank	19 062	23 543	30 729
9	Turon bank	15 939	17 585	21 768
	Boshqa banklar	210 380	266 143	337 827
10	Kapital bank	41 866	47 365	57 557
11	Ipoteka-bank	47 638	52 069	54 728
12	Hamkorbank	20 980	28 708	35 912
13	Ipak yo'li bank	16 866	23 150	28 379
14	Orient Finance Bank	13 126	16 878	19 042
15	TBC bank	4 513	9 737	14 524
16	Anor bank	4 418	10 108	15 479
17	Invest Finance Bank	9 571	12 062	14 942
18	Trast bank	9 450	10 868	14 332
19	KBD bank O'zbekiston	8 845	10 134	13 080
20	Davr bank	6 130	9 361	12 220
21	Asia Alliance bank	8 029	7 527	8 828
22	Tenge bank	6 640	8 061	7 100
23	Oktobank	2 367	3 163	12 202
24	Hayot bank	411	1 663	6 182
25	Universal bank	2 392	3 368	4 832
26	Garant bank	1 681	1 942	4 359
27	Ziraat Bank Uzbekistan	2 941	4 530	3 452
28	Apeks bank	605	939	3 311
29	Poytaxt bank	215	460	557
30	Uzum bank	472	1 072	2 608
31	AVO bank	177	569	1 183
32	Eron Soderat bank	514	639	591
33	Yangi bank	200	377	603

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, ikki yil ichida jami aktivlar qariyb 41,7% ga oshgan. Bu iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi o'sayotganidan va banklarning investitsiyaviy faolligi oshganidan dalolat beradi. Davlat banklari hali ham bozorda hukmronlik qilmoqda (2025-yilda 586 937 mlrd so'm), lekin ularning jami bozordagi ulushi sekin-asta kamaymoqda. Xususiylar va xorijiy banklar esa shiddatli o'sishni ko'rsatmoqda. 2023-yilda 210 380 mlrd so'mdan 2025-yilda 337 827 mlrd so'mga yetgani, bu esa 60% dan ortiq o'sishni ko'rsatadi. Xususiylar banklarning tez o'sishi banklar o'rtasida investitsiya jozibadorligi uchun raqobatni oshiradi, bu esa xalqaro auditdan o'tishni majburiy ehtiyojga aylantiradi.

Bundan tashqari, jadvalda raqamli va nisbatan yangi banklarning o'sishi ham kuzatiladi. Misol uchun, TBC Bank: 2023-yilda 4 513 mlrd so'mdan 2025-yilda 14 524 mlrd so'mga (3 barobardan ortiq o'sish). Anor Bank: 2023-yilda 4 418 mlrd so'mdan 2025-yilda 15 479 mlrd so'mga (3,5 barobar o'sish).

Tijorat banklarining sof foydasi MHXS asosida tuzilgan hisobotlar orqali yanada aniq va ishonchli aks ettiriladi. Milliy hisob standartlaridan xalqaro standartlarga o'tish banklarning moliyaviy natijalarini qiyosiy tahlil qilish imkonini yaratadi hamda boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, bu jarayon tashqi investorlar va xalqaro moliya institutlari uchun banklarning real moliyaviy holatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida O'zbekiston tijorat banklarining yillik sof foyda ko'rsatkichlari keltirib o'tiladi.

2-jadval. Tijorat banklarining sof foydasi.²

T/r	Banklar	2023-yil	2024-yil	2025-yil
		Sof foyda (mlrd so'm)	Sof foyda (mlrd so'm)	Sof foyda (mlrd so'm)
1	O'zmilliybank	1716,5	1722,2	1919,0
2	Agrobank	750,9	69,0	97,7
3	O'zsanoatqurilishbank	911,7	1303,2	1880,1
4	Asaka bank	150,6	41,6	254,2
5	Xalq banki	248,5	268,5	702,5
6	Biznesni rivojlantirish banki	236,0	-2231,1	503,0
7	Aloqa bank	607,7	190,0	251,5
8	Mikrokreditbank	41,1	-1703,8	160,8
9	Turon bank	57,9	23,2	24,9
10	Kapital bank	1629,7	1155,9	1788,3
11	Ipoteka-bank	818,9	-240,2	399,9
12	Hamkorbank	1200,2	1426,6	1705,0
13	Ipak yo'li bank	740,1	910,5	929,3
14	Orient Finance Bank	608,1	901,1	1044,1
15	TBC bank	40,2	341,0	0,6
16	Anor bank	139,5	190,3	302,8
17	Invest Finance Bank	250,3	241,7	112,7
18	Trast bank	800,3	807,4	865,2
19	KBD bank O'zbekiston	430,4	526,9	691,1
20	Davr bank	371,4	389,9	631,5
21	Asia Alliance bank	321,4	400,6	505,6
22	Tenge bank	42,6	36,2	54,9
23	Oktobank	74,7	150,7	255,9
24	Hayot bank	-17,5	-22,5	41,2
25	Universal bank	95,5	156,1	240,9
26	Garant bank	1,3	-64,3	5,2
27	Ziraat Bank Uzbekistan	60,0	79,5	62,2
28	Apeks bank	-18,5	-75,0	95,6
29	Poytaxt bank	16,4	15,0	0,7
30	Uzum bank	38,8	85,9	62,7
31	AVO bank	-27,7	-93,3	6,6
32	Eron Soderat bank	16,9	25,0	25,9
33	Yangi bank	-2,6	-31,9	-136,7

2 Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti "Statistika" bo'limining alohida "Bank tizimi faoliyati ko'rsatkichlari" bo'limida joylashtirilgan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi.



Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2023–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining sof foyda ko'rsatkichlarida sezilarli darajada turli va farqlangan dinamika kuzatiladi. Ushbu tijorat banklari faoliyatida 2024-yil moliyaviy natijalar jihatidan nisbatan murakkab va o'tish davri bo'lganini ta'kidlash mumkin. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, banklar 2024-yilni 6 trln 966 mlrd so'm sof foyda bilan yakunladi. Bu 2023-yildagi ko'rsatkichga nisbatan qariyb 44 foizga kam.

2023–2024-yillar ko'rsatkichlarini solishtirish shuni ko'rsatadiki, banklar faoliyatida 2024-yil moliyaviy natijalar jihatidan nisbatan murakkab davr bo'lgan. Raqamlar orqali ifodalanganda, davlat ulushi mavjud banklar 2024-yilni 317,2 mlrd so'mlik zarar bilan yakunlagan. Bunga Mikrokreditbank (-1,7 trln so'm) va Biznesni rivojlantirish banki (-2,2 trln so'm)ning katta miqdorda zarar ko'rgani asosiy sabab bo'lgan. Shuningdek, Aloqabank, Agrobank va Asakabankning ham sof foydasi 2023-yilga nisbatan keskin kamaygan.

Xususi banklar esa yil davomida jami 7,3 trln so'm sof foyda olgan. Davlat ulushi bo'lmagan banklar orasida Hamkorbank 1,42 trln so'm sof foyda bilan yetakchi bo'lgan bo'lsa, undan keyingi o'rinni Kapitalbank (1,16 trln so'm) egallagan. Sof foyda bo'yicha TOP-10 talikda ikkita davlat banki — O'zsanoatqurilishbank va O'zmilliybank qayd etilgan. O'zsanoatqurilishbank 2023-yilga nisbatan qariyb 43 foizlik o'sish bilan 1,3 trln so'm sof foyda olgan.

Bu holat MHXSga o'tish jarayonida kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxiralarning ko'paytirilishi, aktivlarning adolatli qiymat bo'yicha qayta baholanishi hamda muammoli kreditlarning oshkor etilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Milliy buxgalteriya tizimida oldin to'liq aks ettirilmagan risklar MHXSda ochiq ko'rinish olgani sababli sof foyda vaqtincha kamaygan.

Eng muhim jihatlardan biri shundaki, 2025-yilda O'zbekiston tijorat banklari 15,5 trln so'm (1 mlrd 286 mln AQSH dollari) sof foyda olgan. Bu 2024-yildagi ko'rsatkichdan 8,5 trln so'mga yoki 2,2 barobar ko'pdir. 2025-yilda 35 ta bankdan beshtasi 1 trln so'mdan ortiq sof foyda olgan. Bular O'zmilliybank, O'zsanoatqurilishbank, Kapitalbank, Hamkorbank va Orient Finans bank hisoblanadi.

Shuningdek, yettita bankning sof foydasi 500 mlrd so'mdan, sakkizta bankniki esa 100 mlrd so'mdan oshgan. O'zbekistonning eng yirik banki bo'lgan O'zmilliybank qariyb 2 trln so'm sof foyda olishga erishgan. Bu bankda MHXS talablariga mos hisobot yuritish jarayonlari nisbatan erta joriy etilgani va moliyaviy boshqaruvning shaffofligi oshgani bilan izohlanadi. O'zsanoatqurilishbank va Hamkorbankda ham 2024-yildagi qisqa muddatli tebranishlarga qaramay, 2025-yilda sof foydaning sezilarli oshgani kuzatiladi. Bu holat MHXS asosida aktivlar va majburiyatlarning qayta baholanishi dastlab foydani kamaytirgani, ammo keyingi davrda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaganini ko'rsatadi.

Yuqoridagi natijalar MHXSga moslashuv qisqa muddatda qiyinchiliklar keltirsa-da, o'rta muddatda banklarning moliyaviy holatini yanada real va shaffof aks ettirishga xizmat qilganini tasdiqlaydi.

Yaqin yillarni raqamlashtirish, shaffoflik va radikal o'zgarishlar davri deb atash mumkin, chunki bu davr buxgalteriya hisobini haqiqiy boshqaruv instrumentiga aylantirishga qaratilgan. Ushbu yillarda yirik tadbirkorlik subyektlari va ommaviy ahamiyatga ega kompaniyalar uchun xalqaro moliyaviy hisobot standartlari majburiy qilib belgilandi. Bu kichik biznesga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmasa-da, ularning yirik hamkorlari bilan ishlash standartlarini oshirdi va mahalliy buxgalteriya sohasining sifatini oshirishga xizmat qildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, MHXSga o'tish O'zbekiston biznes muhitiga va moliyaviy tizimiga keng qamrovli ijobiy va ayrim salbiy ta'sirlarni ko'rsatmoqda. Xususan, moliyaviy instrumentlar va lizing operatsiyalarini baholashdagi o'zgarishlar kompaniyalarning haqiqiy qarz yukini ochiqlash imkonini berdi. Yana bir muhim jihatlardan biri — bu investitsion jozibadorlikning o'sishidir. Xalqaro investorlar va kredit tashkilotlari, jumladan World Bank va European Bank for Reconstruction and Development, MHXS hisobotlariga tayanadi. Standartlar O'zbekiston kompaniyalarining xalqaro kapital bozorlariga chiqishini soddalashtirdi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy hisobotlarni qayta transformatsiya qilishga bo'lgan ehtiyoj kamaydi.

Biroq barcha yaratilgan sharoitlar va zamonaviy dasturlarga qaramasdan, mamlakatimizda moliya va hisob sohasida tadbirkorlik subyektlari uchun kamchilik va qiyinchiliklar yo'q, deb ayto olmaymiz. Milliy standartlar va yangi MHXS o'rtasidagi chalkashliklar, malakali kadrlar yetishmovchiligi (masalan, MHXS 9, 15, 16 standartlarini mustaqil amalga oshira oladigan mutaxassislar kam), raqamlashtirish va dasturiy ta'minot muammolari, ayrim auditorlik xizmatlarining sifati pastligi hamda eng muhimi, qulay buxgalteriya dasturlarining O'zbekistonda keng qo'llanilmasligi ushbu muammolar qatoriga kiradi.

O'zbekistonda buxgalteriya va moliya sohasini rivojlantirish maqsadida quyidagi yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish lozim. Hukumat darajasida MHXSga to'liq o'tish strategiyasini qat'iy amalga oshirish va bu jarayonni tezlashtirish zarur. Qisqa muddat ichida BHMS amaliyotini bosqichma-bosqich bekor qilib, yagona, aniq va soddalashtirilgan MHXS tamoyillarini joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.



Bundan tashqari, ilg'or xalqaro sertifikatlariga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni rag'batlantirish muhimdir, jumladan ACCA, CPA va DipIFR kabi sertifikatlar. Buxgalterlar va auditorlar uchun doimiy majburiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda ularni davlat tomonidan subsidiyalash lozim. Xalqaro miqyosda tan olingan va qulay buxgalteriya dasturlarining O'zbekiston soliq tizimiga moslashtirilmagani yoki yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmagani sababli ulardan keng foydalanilmayapti va bu muammo dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Panaretou, A. Corporate risk disclosure and financial reporting quality under IFRS // Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. – 2014. – Vol. 23. – P. 1–14.
2. Abdel-Khalik, A. R. Accounting Theory. – London: Thomson Learning, 2004. – 512 p.
3. Sunder, S. Theory of Accounting and Control. – South-Western College Publishing, 1997.
4. Ball, R. International Financial Reporting Standards (IFRS): Pros and cons for investors // Accounting and Business Research. – 2006. – Vol. 36. – P. 5–27.
5. Hussainey, K. The Effects of IFRS Adoption on Financial Disclosure: Evidence from Developing Markets // Journal of International Financial Management & Accounting. – 2011. – Vol. 22(1). – P. 56–78.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020-yil 24-fevral, PQ-4611-son. Kuchga kirish sanasi: 2020-yil 25-fevral.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2025-yil 15-sentabr, PQ-282-son. Kuchga kirish sanasi: 2025-yil 17-dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari va hisobotlari. – <https://cbu.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>